

**HARBIY XIZMATCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA MOSLASHUVNING  
PSIXOLOGIK NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI**

**Tursunov Qamariddin G'ulomovich**  
*Jamoat xavfsizligi universiteti ofitseri*

**Annotasiya:** *Mazkur maqolada fuqarolarning Qurolli Kuchlar harbiy qismlari va muassasalarida harbiy majburiyatni bajarishdan iborat davlat xizmat turlari keltirilgan. Shu jumladan, harbiy xizmatchining shaxsi, uning kompetentligi, harbiy xizmatchining harbiy xizmatga moslashuv jarayonining mohiyati va moslashuvning ijtimoiylashuv jarayoni bilan aloqasi yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Moslashish, harbiy xizmatchi, harbiy xizmat, jamoa, harbiy xizmatchilarning kompetentligi, kasbiy faoliyatga moslashuv, ijtimoiylashuv jarayoni, burchga sodiqlik, samarali moslashuv, kasbiy ong.*

Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga moslashuvi bizning nazarimizda harbiy kiyim kiygan kundan boshlanadi. Chunki, avvalo, harbiy kiyimga, keyin muhitga va faoliyatga moslashadi. Bu uchta omil harbiy xizmatchilar kasbiy ongini shakllantirishga xizmat qiladi. Birinchidan, kasbiy moslashuv, avvalo, har bir harbiy xizmatchining burchiga, vazifasiga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyati jarayonida qay darajada umumharbiy Nizom talablariga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Jumladan, Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga moslashuvi ularni kompetentligining tarkibiy qismi hisoblanadi. Kompetentlik esa komil insonni shakllanishiga xizmat qiladi. Harbiy xizmatchilarning kompetentligi bevosita huquqiy, psixologik, pedagogik, kibernetik bilimlar bilan chambarchas bog'liq. Kompetensiya so'ziga pedagogika va psixologiyada ko'plab ta'riflar berilgan, biroq kompetensiya biz o'rganayotgan obyektning predmeti hisoblanmaydi. Har bir harbiy xizmatchining kompetentligi bevosita moslashuv ya'ni kasbiy faoliyatga moslashuv jarayoni bilan bog'liqdir. "Jarayon" deganda ma'lum muddatni o'z ichiga oladigan va shu muddatda harbiy xizmatchining tarbiyalanadigan, shakllanadigan davri tushuniladi. "Jarayon" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, oqib borish, sodir bo'lish, ish harakat, voqea-hodisaning birin-ketin borishi, rivoji ma'nosida tushuniladi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyati bir qancha jarayonlardan iborat va bu jarayonlar harbiy xizmatchilarni kasbiy faoliyatga yo'naltiradi va xizmatga moslashtirishga xizmat qiladi.

Kasbiy faoliyatga moslashuv bevosita kasbiy ong, kasbiy madaniyatning rivoji bilan uzviy aloqadorlikda shakllanadi va bu bir tomondan harbiy xizmatchining kasbiy faoliyatiga moslashuvi uning kompetentligi, avvalambor, individual xususiyatiga bog'liq bo'lsa, yuqoridagi fikrimizda aytganimizdek, irodasi bilan bevosita va bilvosita bog'liqlikda namoyon bo'lsa, boshqa tomondan esa har bir harbiy xizmatchini kasbiy faoliyatga moslashuviga davlatning yordamisiz, qo'llab quvvatlashisiz erishib bo'lmaydi. Bugungi kunda ijtimoiy fanlarda, "moslashuv" istihola tushunchalariga ta'riflarni o'nlab topish mumkin. Maqolani yozishda o'z oldimizga mazkur tushunchani har tomonlama chuqur tahlil etish maqsad qilib qo'yilgan, ammo bu tushunchani birgina maqolada yoritib berish imkoni yo'q albatta. Lekin bir nechta

tushunchaga to'xtalib o'tamiz, chunki, maqola asosan muammoning nazariy tomonlarining tahliliga qaratilgan.

"Moslashuv" atamasi bevosita kasbiy faoliyatga nisbatan qo'llanilishi ham mumkin, ikkinchi tomondan esa huquqiy jihatdan moslashuv tushunchasi bilan ham bog'liq. Huquqiy jihatdan kasbiy faoliyatga moslashuv huquqiy madaniyatni shakllantirish tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir. Lekin, huquqiy jihatdan kasbiy faoliyatga moslashuv biz o'rganayotgan muammoning bir qismi hisoblanadi va bizni o'rganish obyektimizga taalluqli emas. Bugungi kunda harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga moslashuvi barcha ijtimoiy fanlar singari harbiy xizmatchining kasbiy faoliyatga moslashuv muammosini pedagogika nazariyasining bahs mavzusiga aylantirmoqda. "Xodim" atamasi ko'pchilik olimlarimiz ya'ni, V.Alimasov, N.N.Azizxodjayeva, O.M.Asqarova, I.Ismoilov, Z.Zaripov, X.Mamatov, U.Tadjixanov va R.Maxmudovlar tomonidan keng o'rganilgan va o'rganib kelinmoqda. Yuqorida zikr etilgan olimlarning ishlarida tadqiqotlarning ahamiyatini qayd etish barobarida shuni ta'kidlash lozimki, mazkur olimlarning ilmiy ishlarida harbiy xizmatchi va uning kasbiy faoliyatiga moslashuvi chuqur o'rganilmagan, chunki ularning o'rganish obyekti boshqa muammoga qaratilgan bo'lgan va moslashuvning ayrim jihatlari o'zlarining ilmiy ishlarida yoritishga harakat qilingan. Shu bilan birga kasbiy faoliyatga moslashuv tadqiqot mavzusi sifatida tahlil etilmagan.

Hozirgi vaqtda aksariyat yoshlar yangi sharoitga qiyinchiliklarsiz moslashish imkonini beradigan jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishning yuqori mezonlariga mos kelmaydi. Shu munosabat bilan bo'linma ofitseriga me'yorlarga muvofiq shaxsning boshlang'ich sifat va imkoniyatlarini, bu sifatlarni rivojlantirishning yo'llarini hisobga olgan holda moslashish jarayonini amalga oshirishning optimal usullarini qidirish vazifasi yuklanadi. Shuning uchun ushbu mavzuni ahamiyatli deb hisoblash mumkin. Moslashish (Lotincha) bu tananing, shaxsning, uning xarakterlar tizimining 12 alohida ta'sirlar yoki o'zgargan yashash sharoitlariga moslashishi. Qaysi sharoitlarda va qaysi mexanizmlar vositada muhitga moslashish sodir bo'lishiga qarab, har xil moslashishning turlari ajraladi:

- organizmdagi turli tizimlarining fiziologik o'zaro ta'siri: hayotiy ahamiyat ta'siriga mos ravishda a'zolar funksiyalarida moddalar almashinuvida biologik o'zgarish; psixik jarayon darajasidagi vazifalarga, xususiyatlarga, holatlarga, masalan qorong'uda ko'z sezgirligini oshishi kabi sharoitlarga insonning psixologik moslashishi:

- yangi jamoadagi o'zaro munosabatlarga ijtimoiy-psixologik moslashish. Moslashishning bu turlari bir vaqtning o'zida o'zaro aloqada bo'lishi va o'zini namoyon qilishi mumkin. Agar inson bo'lajak faoliyatning ehtimoliy holatlari bilan tanish bo'lsa, to'g'ri yo'nalish uchun zarur bo'lgan bilim va ma'lumotlarga ega bo'lsa yangi vaziyatga moslashish jarayoni tezlashadi. Muvaffaqiyatli moslashish uchun o'ziningning hatti-harakatlarini boshqarishni, ichki holatini muhit talablari bilan muvofiqlashtirishni, hayotning yangi vaziyatlariga muvofiq tayyorlikni rivojlantirishni o'rganish kerak. Moslashish muammolarining dolzarbligi, harbiy faoliyat uchun harbiy xizmatchilarni tayyorlash manfaatlarida uning mohiyati, tarkibi, xususiyatlari va unga samarali ta'siri yo'llarini faol va sarmahsul izlanishi shartligiga olib keldi. Ammo shu bilan birga, tabiiy ravishda "Moslashish" atamasiga ko'plab tarif berishga urinishlar paydo bo'lishiga olib keldi. Harbiy xizmatchilarning moslashish jarayonida ularning psixologik xususiyatlari va sifatlari taqdim etilgan yangi faoliyat talablarga muvofiq tiklash sodir bolatifoqliklar, idealar, e'tiqodlar, yangi istiqbollarga hot qayta tiklash sodir bo'ladi. Motivatsion kompleksni qayta

tiklash harbiy xizmatchida maqsadlarining paydo bo'lishiga yoki kuchayishiga olib keladi. Ularning mahorati, ko'nikmalari va odatlarida sezilarli o'zgarishlardir oshkor bo'ladi. Ulardan harbiy jamoadagi xulq-atvor talablariga javob beradiganlari rivojlanadi, javob bermaydiganlari zaiflashadi va yo'qoladi. Yosh harbiy xizmatchilar bilan butlangan harbiy jamoalar umumiy va farqlovchi xususiyatlariga ega. Har bir yosh harbiy xizmatchining harbiy xizmatni o'tash shartlariga moslashish bo'yicha jiddiy ishlarni amalga oshirmasdan turib, individual tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, axloqiy, jangovar va psixologik tayyorgarlik samaradorligini oshirish, harbiy intizomni mustahkamlashning imkoni bo'lmaydi. Harbiy xizmatdagi eng muhim davr moslashish davri bo'lib shaxs ichki dunyosida qayta tiklanish, uning yashash tarzi va maishiy hayotida harbiy muhitning talablariga moslashish sodir bo'ladi. Ushbu davrning qanchalik darajada muvaffaqiyatli o'tishi, keyingi xizmatni davom etishiga bog'liq bo'ladi. Ushbu davrning muhim jihati, shaxs qanday qilib atrofdagilar bilan munosabatlarni tiklashi, nizoli holatlarda o'zini qanday tutishi, o'zining munosibligini qanday saqlashi, o'zining "Meni", qaysi psixologik himoya mexanizmlaridan foydalanishi hisoblanadi.

Armiyadagi harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayoni juda dinamik va uning muvaffaqiyati ko'p jihatdan bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sharoitlar, funksional holat, ijtimoiy tajriba, hayotga munosabat va boshqalarga bog'liq. Ijtimoiy-psixologik moslashuvning sabablari yangi o'ziga xos muhitda sodir bo'ladigan va yoshlar fuqarolik hayotida uchramagan ko'plab omillardir:

- harbiy-professional faoliyat qat'iy tartibga solinadi;
- umum harbiy nizomning talablari;
- munosabatlarning yangi shakllari;
- murakkab harbiy texnikaga texnik xizmat ko'rsatish;
- faoliyatning o'zaro bog'langan jamoaviy xususiyati;
- hal qilinadigan vazifalarning umumiyligi.

Agar harbiy jamoa zaif bo'lsa, jamoaning aksariyat a'zolari xizmat va jamoat vazifalarini yechishda passivdirlar, komandirlar ishning asl mohiyatini bilishmaydi, aks holda harbiy xizmatchida "Moslashishi" ning boshqacha qiyofasini ko'rishingiz mumkin. Zamonaviy armiyada harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlar, moslashish jarayonidan kamida ikki marta o'tkazishi kerak:

- ular maxsus o'quv bo'linmalariga o'qishga kirganda;
- ular keyingi xizmatini davom ettirish uchun jangovar bo'linmalarga tayinlanganda.

Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, harbiy-professional yo'nalish ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Qurolli Kuchlar tizimidagi bo'lajak harbiy xizmatchilarda kasbiy moslashuvchanlikni oshirishni ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etish o'ta muhim masala hisoblanadi.

Qurolli Kuchlar tizimidagi bo'lajak harbiy xizmatchilarda kasbiy moslashuvchanlikni oshirishni keng ko'lamlari tadqiqotlar olib borilsa, moslashuvchanlikka xos xususiyatlar aniqlansa, kasbiy moslashuvchanlik ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tadqiq etilsa, u holda harbiy xizmatchilar uchun shart sanalgan ko'plab psixologik sifatlarning aniqlanishi ehtimoldan holi bo'lmaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Андреева Д.А. О понятии адаптации. Исследование адаптации студентов к условиям учебы в Вузе. В кн.: Человек и общество: Проблемы интеллектуального и культурного развития студенчества. Л.: ЛГУ, 1973. - 34 с.
2. Артемьева Е.Ю., Мартынов Е.М. Вероятностные методы в психологии. -М.: 1975, 206 с.
3. Балл Г.А. Понятие адаптации и его значение для психологии личности. Вопросы психологии. М.: 1989. с. 92-100.
4. Бачерников Н.Е. Ситуационные реакции у военнослужащих: Дисс. д-ра мед.наук. - Л.: ВМедА, 1965. - 545 с.
5. Маклаков А.Г. Военная психология. СПб, 2004. - 65 с.
6. Медведев Г.П., Бубин Б.Г., Колесников Ю.С. Адаптация проблема педагогики высшей школы. М.: Советская педагогика, 1969. 31 с. важная
7. Муцинов С.С. Молодые воины: воспитание и адаптация в коллективе. - М.: Институт военной истории МО СССР, 1989. - 86 с.
8. Malikova, D. (2020). Consulting services market of Uzbekistan. World Scientific News, (145), 168-179.
9. Malikova, D. (2023). METHODOLOGY FOR EFFECTIVE ASSESSMENT OF THE and Development Prospects, 96-98. LEVEL OF ECONOMIC SECURITY OF BANKS. Innovative Society: Problems, Analysis
10. Malikova, D., & Ziyadullayeva, M. (2023). INFLATION: THEORETICAL ASPECTS AND ANALYSIS OF PRICE CHANGES IN UZBEKISTAN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(2), 204-207.
11. Авдеев В.В., Чернов С.А., Глемба Л.В. Теория и практика воспитательной работы: Учебное пособие. Новосибирск: Новосибирское ВВКУ, Ч. 1, 2008, 200 с.
12. Александрович П.И., Малютин А.Г., Сенокосов Ж.Г. Психологический анализ трудностей адаптации военнослужащих к армейской жизнедеятельности. Рига: Рижское высшее военно-политическое училище им. Бирюзова С.С., 1991.- 89 с.